2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK: 159.9:316.346.2:316.356.2

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Yulduz Baxtiyorovna,
ISFT instituti katta o‘qituvchisi,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

ZAMONAVIY O‘ZBEK OILALARIDA GENDER TENGLIK NAMOYON BO‘LISHINING ETNOPSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek oilalarida gender tenglik namoyon bo‘lishining etnopsixologik xususiyatlari shaxs qadriyatlari, psixologik jins, etnik identiklik va madaniy orientatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Gender tenglik oiladagi erkak va ayol o‘rtasidagi faqat huquqiy yoki ijtimoiy munosabat sifatida emas, balki shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, etnik mansublikni anglash darajasi, milliy-madaniy me’yorlarni o‘zlashtirishi va gender rollariga nisbatan shakllangan munosabatlari bilan bog‘liq ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaraladi. Maqolada «Zamonaviy o‘zbek oilasining etnopsixologik modelini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tadqiqotda tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va etnopsixologik yondashuvlar asosida gender tenglikning psixologik determinantlari kompleks tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, oila psixologiyasi, etnopsixologiya, etnik identiklik, qadriyatlar tizimi, psixologik jins, madaniy qadriyatlar, gender rollari.

ETHNOPSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE MANIFESTATION OF GENDER EQUALITY IN MODERN UZBEK FAMILIES

Abstract. This article analyzes the ethnopsychological characteristics of the manifestation of gender equality in Uzbek families from the perspective of the interrelationships among personal values, psychological gender, ethnic identity, and cultural orientations. Gender equality is considered not merely as a system of legal or social relations between men and women within the family, but as a multifactorial socio-psychological phenomenon associated with individual psychological characteristics, awareness of ethnic belonging, internalization of national and cultural norms, and attitudes toward gender roles. Drawing on systemic, person-centered, and ethnopsychological approaches, the study provides a comprehensive analysis of the psychological determinants of gender equality.

Keywords: gender equality, family psychology, ethnopsychology, ethnic identity, value system, psychological gender, cultural values, gender roles.

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В статье анализируются этнопсихологические особенности проявления гендерного равенства в узбекских семьях с позиции взаимосвязи личностных ценностей, психологического пола, этнической идентичности и культурных ориентаций. Гендерное равенство рассматривается не только как система правовых или социальных отношений между мужчиной и женщиной в семье, но и как многофакторный социально-психологический феномен, связанный с индивидуально-психологическими особенностями личности, осознанием этнической принадлежности, усвоением национально-культурных норм и сформированным отношением к гендерным ролям. На основе системного, личностно-ориентированного и этнопсихологического подходов осуществлён комплексный анализ психологических детерминант гендерного равенства.

Ключевые слова: гендерное равенство, психология семьи, этнопсихология, этническая идентичность, система ценностей, психологический пол, культурные ценности, гендерные роли.

Kirish. Zamonaviy psixologiyada gender tenglik erkak va ayolning faqat ijtimoiy-huquqiy maqomi bilan cheklanmay, shaxslararo munosabatlar, qadriyatlar tizimi, psixologik jins, etnik identiklik va madaniy muhit ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, oila gender rollari, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar bevosita namoyon bo'ladigan muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi [1].

Oilada vazifalarning taqsimlanishi, qarorlar qabul qilishdagi ishtirok, o'zaro mas'uliyat, hissiy yaqinlik va farzand tarbiyasidagi hamkorlik jamiyatning tarixiy-madaniy tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli oilaviy gender munosabatlarini shaxsiy tanlov bilan bir qatorda ijtimoiy me'yorlar, oilaviy ijtimoiylashuv va madaniy qadriyatlar ta'sirida shakllanadigan psixologik tizim sifatida o'rganish lozim [1]. Etnopsixologik yondashuv gender munosabatlarini shaxs yashayotgan madaniy muhit, qadriyatlar, urf-odatlar va avlodlararo tajriba bilan bog'liq holda tahlil qilishni nazarda tutadi. O'zbek oilalarida bu jarayon an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarning o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi. Milliy an'analar, qarindoshlik munosabatlari, avlodlarga hurmat va oilaviy birdamlik o'z ahamiyatini saqlab qolayotgan bir paytda, ayollarning ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotdagi faolligi an'anaviy gender rollarining mazmunini qayta ko'rib chiqishga zamin yaratmoqda. Natijada gender tenglik an'anaviy va

zamonaviy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi jarayonida shakllanayotgan psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Gender munosabatlarini tushuntirishda qadriyatlar tizimi muhim determinantlardan biridir. Qadriyatlar shaxsning hayotiy maqsadlari, xulq-atvor strategiyalari va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladi. Ayniqsa, individual va normativ qadriyatlar o‘rtasidagi nisbat oilaviy gender munosabatlarining psixologik mazmunini ochib berishda muhimdir. Shaxs individual darajada gender tenglikni qo‘llab-quvvatlagan holda, normativ darajada an’anaviy gender rollarini ma’qullashi mumkin. Shu bois qadriyatlarning har ikki darajasini parallel o‘rganish gender tenglikning psixologik mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi [2].

Gender munosabatlarining yana bir muhim omili psixologik jinsdir. Zamonaviy gender psixologiyasida maskulinlik va femininlik mutlaq qarama-qarshi qutblar emas, balki shaxsda turli darajada namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan nisbatan mustaqil psixologik xususiyatlar sifatida qaraladi. Shu jihatdan oiladagi qarorlarni qabul qilish, mas’uliyatni taqsimlash, farzand tarbiyasidagi hamkorlik va oilaviy vazifalarni muvofiqlashtirish biologik jins bilan bir qatorda psixologik xususiyatlar hamda gender rollarini qabul qilish darajasi bilan bog‘liq [1].

Etnik identiklik ham gender munosabatlarining muhim etnopsixologik omili hisoblanadi. U shaxsning etnik guruhga mansubligini anglash bilan birga, ushbu mansublik bilan bog‘liq kognitiv tasavvurlar, hissiy munosabat va ijtimoiy identifikatsiyani qamrab oladi. Oiladagi gender rollari milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va madaniy an’analar orqali shakllanishi sababli etnik identiklik gender qarashlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi mumkin [1].


Shu nuqtayi nazardan, gender tenglikni faqat bitta psixologik omil asosida tushuntirish yetarli emas. Mazkur hodisani qadriyatlar tizimi, psixologik jins, etnik identiklik va madaniy orientatsiyalarning o‘zaro aloqadorligi asosida kompleks o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadqiqotda mazkur omillar o‘zaro bog‘langan etnopsixologik determinantlar tizimi sifatida tahlil qilinib, gender tenglikning zamonaviy o‘zbek oilalarida namoyon bo‘lishi integrativ yondashuv asosida o‘rganiladi.

Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy o‘zbek oilalarida gender tenglikning namoyon bo‘lishini belgilovchi etnopsixologik determinantlarni empirik jihatdan tahlil qilish, shuningdek, qadriyatlar tizimi, psixologik jins, etnik identiklik va madaniy orientatsiyalarning jins omiliga bog‘liq xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va tashkil etilishi. Tadqiqot zamonaviy o‘zbek oilalarida gender tenglikning namoyon bo‘lishining etnopsixologik xususiyatlarini kompleks o‘rganishga yo‘naltirildi. Empirik tadqiqotda jami 692 nafar respondent ishtirok etdi. Tanlanma erkak va ayol respondentlardan shakllantirilib, turli ijtimoiy-madaniy muhitlarni qamrab olish maqsadida Toshkent shahri, Andijon va Sirdaryo viloyatlaridan respondentlar jalb etildi. Hududlar bo‘yicha taqsimot Toshkent shahrida 241 nafar, Andijon viloyatida 231 nafar va Sirdaryo viloyatida 220 nafar respondentni tashkil etdi. Tadqiqotning psixodiagnostik majmuasi gender tenglik

bilan bog‘liq qadriyatlar, etnik identiklik, madaniy yo‘nalishlar va individual-psixologik xususiyatlarni o‘rganishga qaratilgan metodikalardan tashkil topdi. Xususan, individual va normativ qadriyatlarni baholash uchun Sh. Shvartsning “Qadriyatlar yo‘nalishi” metodikasi, psixologik jins xususiyatlarini aniqlash uchun Sandra Bemning “Psixologik jins diagnostikasi” metodikasi, etnik identiklikning yo‘nalishi va namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish uchun G.U. Soldatovaning “Etnik identiklik tiplari” metodikasi hamda uning kognitiv, affektiv va integral komponentlarini baholash uchun J. Finnining “Etnik identiklik” metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikalarning kompleks qo‘llanilishi gender tenglikning psixologik mazmunini qadriyatlar, psixologik jins va etnik identiklikning o‘zaro bog‘liqligi asosida tahlil qilish imkonini berdi. Sh. Shvarts metodikasi individual va normativ qadriyatlar nisbatini, Sandra Bem metodikasi maskulinlik, femininlik va androginlik ko‘rsatkichlarini, G.U. Soldatova hamda J. Finni metodikalari esa etnik identiklikning turli komponentlarini aniqlashga xizmat qildi. Olingan empirik ma’lumotlarning taqsimot xususiyatlarini aniqlash uchun Kolmogorov–Smirnov mezonidan foydalanildi. Ayrim shkalalardagi ko‘rsatkichlarning normal taqsimotga mos kelmasligi aniqlandi. Jumladan, Sh. Shvarts metodikasining normativ ustuvorlik ko‘rsatkichlari hamda Sandra Bem metodikasining barcha asosiy shkalalarida $p < 0,01$ darajasida statistik ahamiyatlilik qayd etildi. Shu sababli erkak va ayol respondentlar ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishda Mann–Whitney U noparametrik mezonidan foydalanildi. Statistik ahamiyatlilik $p < 0,05$ va $p < 0,01$ darajalarida baholandi.

Umuman, qo‘llanilgan metodik majmua gender tenglikni alohida ko‘rsatkich emas, balki qadriyatlar tizimi, etnik identiklik, madaniy yo‘nalishlar va psixologik jinsning o‘zaro bog‘liq etnopsixologik tizimi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.



1-rasm. Gender tenglikning etnopsixologik ko‘rsatkichlarining jins omili bo‘yicha qiyosiy tahlili

Natijalar va ularning tahlili. Empirik natijalar o‘zbek oilalarida gender tenglik bilan bog‘liq etnopsixologik xususiyatlar erkaklar va ayollarda bir xil yo‘nalishda namoyon bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Xususan, etnik identiklik, madaniy va individual-normativ qadriyatlar hamda psixologik jinsning ayrim komponentlarida jinslararo tafovutlar aniqlandi.

Etnik identiklik tiplari bo‘yicha etnonigilizm va etnoegoizm ko‘rsatkichlarida statistik ahamiyatli farqlar qayd etildi. Etnonigilizm bo‘yicha ayollarning o‘rtacha rangi (378,73) erkaklarnikidan (311,34) yuqori bo‘lib, farq statistik jihatdan ahamiyatli ($U = 44490,5$; $p = 0,037$). Etnoegoizmda esa erkaklarning o‘rtacha rangi (399,03) ayollarnikidan (306,39) yuqori bo‘lgan ($U = 35300,5$; $p = 0,008$). Etnik indifferentlik, pozitiv etnik identiklik, etnoizolyatsionizm va milliy fanatizm bo‘yicha statistik ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bu etnik identiklikning ayrim komponentlari jins guruhlarida differensial namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

J. Finni metodikasi bo‘yicha integral etnik identiklik ko‘rsatkichida ham jinslararo tafovut qayd etildi: erkaklarning o‘rtacha rangi 376,56, ayollarniki 337,22 ($U = 55922$; $p < 0,01$). Mazkur natija guruhlar o‘rtasidagi statistik tafovutni ifodalaydi va sababiy bog‘lanish sifatida talqin qilinmasligi lozim.

Madaniy qadriyatlar tahlilida mustaqillik–bo‘ysunuvchanlik, madaniyatga ochiqlik, tavakkalchilik, yutuqqa erishish motivi va ijtimoiy statusning ahamiyati bo‘yicha statistik farqlar aniqlandi. Guruh ichidagi qo‘llab-quvvatlash, an’anaviylik, tashabbuskorlik, tolerantlik, emotsionallik va ijtimoiy standartlarga bo‘ysunish ko‘rsatkichlarida esa sezilarli tafovut kuzatilmadi. Demak, madaniy qadriyatlarning jins guruhlari bilan bog‘liqligi selektiv xarakterga ega.

Sh. Shvarts metodikasi bo‘yicha individual qadriyatlarda an’analar, rag‘batlantirish va xavfsizlik ko‘rsatkichlarida farqlar qayd etildi. “An’analar, odatlar” shkalasida ayollarning o‘rtacha rangi 374,45, erkaklarniki 311,86 ($U = 48470,5$; $p < 0,001$) bo‘ldi. Rag‘batlantirish qadriyatida ayollar, xavfsizlik qadriyatida esa erkaklar yuqoriroq o‘rtacha ranglarga ega bo‘ldi.

Normativ qadriyatlarda “an’analar va odatlar” bo‘yicha ayollarning o‘rtacha rangi 367,86, erkaklarniki 320,02 ($U = 50991$; $p = 0,002$) bo‘lib, shuningdek, universallik, rag‘batlantirish va gedonizm ko‘rsatkichlarida ham statistik ahamiyatli tafovutlar aniqlandi. An’analar qadriyatining individual va normativ darajada farqlanishi uning gender munosabatlarini tushuntirishdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Sandra Bem metodikasi bo‘yicha maskulinlik, femininlik va androginlik ko‘rsatkichlarida jins guruhlari o‘rtasida statistik ahamiyatli tafovutlar aniqlandi. Bu gender munosabatlarini biologik jins bilan cheklab izohlash yetarli emasligini va psixologik jins xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman, natijalar o‘zbek oilalarida gender tenglikning etnopsixologik xususiyatlari yagona omil bilan emas, balki etnik identiklik, madaniy qadriyatlar, individual va normativ qadriyatlar hamda psixologik jins xususiyatlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, an’anaviy qadriyatlarning saqlanishi bilan bir qatorda madaniyatga ochiqlik, rag‘batlantirish va boshqa

zamonaviy orientatsiyalarning namoyon bo‘lishi oilaviy gender munosabatlarida an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarning parallel uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar o‘zbek oilalarida gender tenglikning namoyon bo‘lishi etnik identiklik, madaniy qadriyatlar, individual va normativ qadriyatlar hamda psixologik jins xususiyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq murakkab tizim ekanligini ko‘rsatdi. Jinslararo statistik tafovutlarning barcha shkalalarda emas, balki ayrim ko‘rsatkichlarda aniqlanishi gender farqlarining selektiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Etnik identiklik tahlilida etnonigilizm va etnoegoizm bo‘yicha jinslararo farqlar qayd etildi. Etnonigilizmda ayollarning o‘rtacha rangi yuqoriroq (378,73), etnoegoizmda esa erkaklarning o‘rtacha rangi ustun (399,03) bo‘lgan. Boshqa ko‘rsatkichlarda statistik ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. J. Finni metodikasi bo‘yicha integral etnik identiklikda ham erkaklarning o‘rtacha rangi yuqori bo‘lib, 376,56 va 337,22 ni tashkil etdi ($U = 55922$; $p = 0,003$). Bu natijalar etnik identiklikning jins guruhlarida barcha komponentlar bo‘yicha bir xil yo‘nalishda namoyon bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Madaniy qadriyatlarda mustaqillik–bo‘ysunuvchanlik, madaniyatga ochiqlik, tavakkalchilik, yutuqqa erishish motivi va ijtimoiy statusning ahamiyati bo‘yicha statistik tafovutlar aniqlandi. Boshqa qator ko‘rsatkichlarda farqlar kuzatilmadi. Demak, gender va madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik umumiy emas, balki muayyan qadriyat yo‘nalishlari doirasida namoyon bo‘ladi. Shu bois o‘zbek oilalaridagi gender munosabatlarini faqat “an’anaviy–zamonaviy” qarama-qarshiligi orqali izohlash yetarli emas.

Sh. Shvarts metodikasi bo‘yicha individual qadriyatlarda an’analar, rag‘batlantirish va xavfsizlik, normativ qadriyatlarda esa an’analar, universallik, rag‘batlantirish va gedonizm bo‘yicha jinslararo tafovutlar aniqlandi. Xususan, individual darajadagi “an’analar, odatlar” shkalasida ayollarning o‘rtacha rangi 374,45, erkaklarniki 311,86 ($U = 48470,5$; $p < 0,001$), normativ darajada esa 367,86 va 320,02 ni tashkil etdi ($U = 50991$; $p = 0,002$). Bu an’analar qadriyatining o‘zbek oilalaridagi gender munosabatlarini tushuntirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rag‘batlantirish, universallik va boshqa qadriyatlarning ham differensial namoyon bo‘lishi an’anaviy va zamonaviy orientatsiyalarning parallel mavjudligini ko‘rsatadi.

Normativ qadriyatlarda universallik bo‘yicha ayollarning o‘rtacha rangi 376,10, erkaklarniki 309,81 ($U = 47835$; $p < 0,001$), rag‘batlantirish bo‘yicha 364,38 va 324,33 ($U = 52324$; $p = 0,009$), gedonizm bo‘yicha esa erkaklarning o‘rtacha rangi yuqori bo‘lib, 365,87 va 330,87 ni tashkil etdi ($U = 53188$; $p = 0,022$). Bu tafovutlarning bir yo‘nalishli emasligini ko‘rsatadi. Shvarts nazariyasiga ko‘ra, bunday qadriyatlarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan motivatsion tizim sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiq [3].

Psixologik jins ko‘rsatkichlarida ham statistik ahamiyatli farqlar qayd etildi. Maskulinlik bo‘yicha ayollarning o‘rtacha rangi 377,92, erkaklarniki 304,73 ($U =$

38628; p = 0,004), femininlik bo‘yicha esa 377,98 va 304,67 ni tashkil etdi (U = 38606; p = 0,008). Mazkur natijalar genderga oid psixologik xususiyatlarni biologik jins bilan to‘liq aynanlashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. S. L. Bemning gender sxemasi konsepsiyasi ham femininlik va maskulinlikni shaxsning genderga oid axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari bilan bog‘liq holda izohlaydi [5].

Olingan natijalar genderning ijtimoiy shakllanishi haqidagi C. West va D. H. Zimmerman qarashlari bilan hamohang bo‘lib, ular genderni kundalik ijtimoiy munosabatlarda shakllanadigan va qayta ishlab chiqiladigan ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladilar [2]. Etnik identiklik bo‘yicha natijalar esa J. S. Phinney konsepsiyasidagi etnik identiklikning ko‘p komponentli tabiati bilan mazmunan uyg‘unlashadi [4].

Sh. Shvarts va T. Rubelning kross-madaniy tadqiqotlarida ham erkaklar va ayollarning ayrim qadriyat ustuvorliklarida farqlar aniqlangan, biroq ularning namoyon bo‘lishi madaniy kontekstga bog‘liq ekanligi qayd etilgan [3]. Bu holat tadqiqotimiz natijalarini ham gender va qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatning selektiv hamda etnomadaniy xususiyatga ega ekanligi nuqtayi nazaridan talqin qilish imkonini beradi.

Umuman, natijalar o‘zbek oilalarida gender tenglik an’anaviy qadriyatlarning oddiy zaiflashuvi yoki zamonaviy qadriyatlarning kuchayishi bilan emas, balki etnik identiklik, qadriyatlar tizimi, madaniy orientatsiyalar va psixologik jins xususiyatlarining murakkab uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Shu sababli gender munosabatlarini o‘rganishda an’anaviy va zamonaviy modelni qarama-qarshi qo‘yishdan ko‘ra, mazkur omillarning o‘zaro ta’sirini kompleks tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq.

Xulosa va tavsiyalar. Olingan empirik natijalar o‘zbek oilalarida gender tenglikning etnopsixologik xususiyatlari birgina jins omili bilan emas, balki etnik identiklik, madaniy orientatsiyalar, individual va normativ qadriyatlar hamda psixologik jins xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadigan murakkab tizim ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli gender munosabatlarini shaxs va ijtimoiy-madaniy muhitning o‘zaro ta’siridan ajratib o‘rganish yetarli emas [6].

Etnik identiklikning barcha komponentlari jins omili bilan bir xil darajada bog‘liq emasligi aniqlandi. Etnonigilizm va etnoegoizm ko‘rsatkichlarida statistik ahamiyatli jinslararo tafovutlar mavjud bo‘lsa, etnik indifferentlik, pozitiv etnik identiklik, etnoizolyatsionizm va milliy fanatizm bo‘yicha bunday farqlar qayd etilmadi. Bu etnik identiklikni kognitiv, affektiv va ijtimoiy-identifikatsion jarayonlarni qamrab oluvchi ko‘p komponentli tuzilma sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Madaniy qadriyatlarda mustaqillik–bo‘ysunuvchanlik, madaniyatga ochiqlik, tavakkalchilik, yutuqqa erishish motivi va ijtimoiy statusning ahamiyati bo‘yicha jinslararo tafovutlar aniqlandi. Barcha ko‘rsatkichlarda bir xil yo‘nalishdagi farqlar

kuzatilmagani gender munosabatlarini faqat “an’anaviy” yoki “zamonaviy” model asosida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Qadriyatlar tizimida individual darajada an’analar, rag‘batlantirish va xavfsizlik, normativ darajada esa an’analar, universallik, rag‘batlantirish va gedonizm ko‘rsatkichlarida statistik farqlar aniqlandi. Ayniqsa, an’analar qadriyatining individual va normativ darajada differensial namoyon bo‘lishi uning o‘zbek oilalaridagi gender munosabatlarini tushuntirishda muhim etnopsixologik komponent ekanligini ko‘rsatadi. Shvarts nazariyasiga ko‘ra, qadriyatlar o‘zaro bog‘langan motivatsion tizimni tashkil qiladi [3].

An’anaviy qadriyatlar bilan bir qatorda rag‘batlantirish, universallik va boshqa orientatsiyalarning ham differensial namoyon bo‘lishi ularni yangilik va o‘zgarishlarning mutlaq inkori sifatida talqin qilmaslik lozimligini ko‘rsatadi. Kross-madaniy tadqiqotlarda ham qadriyat ustuvorliklaridagi jinslararo tafovutlarning madaniy kontekstga bog‘liqligi qayd etilgan [3].

Psixologik jins bo‘yicha maskulinlik, femininlik va androginlik ko‘rsatkichlarida jinslararo statistik tafovutlar aniqlandi. Bu genderga oid psixologik xususiyatlarni biologik jins bilan to‘liq aynanlashtirish metodologik jihatdan cheklanganligini ko‘rsatadi. Gender sxemasi yondashuvi ham mazkur xususiyatlarni shaxsning shakllangan kognitiv tuzilmalari bilan bog‘liq holda tushuntiradi [5]. Shu sababli oiladagi gender tenglikni o‘rganishda biologik jins bilan bir qatorda psixologik jins, qadriyatlar tizimi va etnomadaniy omillarni kompleks hisobga olish zarur.

Umuman, o‘zbek oilalarida gender tenglik an’anaviy qadriyatlarning oddiy zaiflashuvi yoki zamonaviy qadriyatlar bilan almashinuvi emas, balki etnik identiklik, qadriyatlar, madaniy orientatsiyalar va psixologik jins xususiyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Gender tenglik erkak va ayolning bir xil psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishini emas, balki o‘zaro hurmat, hamkorlik va mas’uliyatni muvozanatli taqsimlash uchun zarur psixologik sharoitlarni anglatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, oilaviy psixologik maslahat va pedagogik-ma’rifiy dasturlarda an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarni qarama-qarshi qo‘yishdan ko‘ra, ularning konstruktiv uyg‘unlashuviga e’tibor qaratish tavsiya etiladi. Oilada o‘zaro hurmat, hamkorlik, mas’uliyatni adolatli taqsimlash va qarorlarni kelishuv asosida qabul qilishni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, gender munosabatlarini o‘rganishda qadriyatlar tizimi, etnik identiklik va psixologik jins xususiyatlarini kompleks diagnostika qilish muhimdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda hududiy, yosh, ta’lim darajasi va oilaviy-demografik omillarni hisobga olgan holda tanlanmani kengaytirish, gender tenglikning real oilaviy xulq-atvor va o‘zaro munosabatlardagi namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish maqsadga muvofiq. Bu aniqlangan statistik tafovutlarning psixologik mexanizmlarini chuqurroq tushuntirish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari genderning ijtimoiy shakllanishi, qadriyatlar ustuvorligidagi jinslararo va kross-madaniy xususiyatlar, etnik identiklikning ko‘p komponentli tuzilishi hamda gender sxemasi haqidagi ilmiy qarashlarni o‘zbek oilasining etnomadaniy kontekstida empirik jihatdan kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bem S.L. Gender Schema Theory: A Cognitive Account of Sex Typing // Psychological Review. – 2001. – Vol. 88, No. 4. – P. 354–364.
2. West C., Zimmerman D.H. Doing Gender // Gender & Society. – 2007. – Vol. 1, No. 2. – P. 125–151.
3. Phinney J.S. The Multigroup Ethnic Identity Measure: A New Scale for Use with Diverse Groups // Journal of Adolescent Research. – 1992. – Vol. 7, No. 2. – P. 156–176.
4. Schwartz S.H., Rubel T. Sex Differences in Value Priorities: Cross-Cultural and Multimethod Studies // Journal of Personality and Social Psychology. – 2005. – Vol. 89, No. 6. – P. 1010–1028.
5. Schwartz S.H., Cieciuch J., Vecchione M., Davidov E., Fischer R., Beierlein C., Ramos A., Verkasalo M., Lönnqvist J.-E., Demirutku K., Dirilen-Gumus O., Konty M. Refining the Theory of Basic Individual Values // Journal of Personality and Social Psychology. – 2012. – Vol. 103, No. 4. – P. 663–688.
6. Urbaeva J. Opportunity, Social Mobility, and Women's Views on Gender Roles in Central Asia // Social Work. – 2019. – Vol. 64, No. 3. – P. 207–215.
7. Seddig D., Lomazzi V. Using Cultural and Structural Indicators to Explain Measurement Noninvariance in Gender Role Attitudes with Multilevel Structural Equation Modeling // Social Science Research. – 2019. – Vol. 84. – Article 102328.
8. Bütikofer A., Jensen S., Salvanes K.G. The Intergenerational Transmission of Gender Role Attitudes: Evidence from Immigrant Mothers-in-Law // Journal of Economic Behavior & Organization. – 2020. – Vol. 179. – P. 101–115.
9. Zhussipbek G., Nagayeva Z. Human Rights of Daughters-in-Law (Kelins) in Central Asia: Harmful Traditional Practices and Structural Oppression // Central Asian Survey. – 2021. – Vol. 40, No. 2. – P. 222–241.
10. Gasanova S. Ethnic Identity: Peculiarities of Interaction Between Family Values and Multi-Ethnic Student Environment Through the Example of Dagestani Students // Humanities and Social Sciences Communications. – 2021. – Vol. 8. – Article 276.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694